

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

JISMONIY MADANIYAT FAKULTETI

**“JISMONIY MADANIYAT VA SPORT: TA‘LIM
DASTURLARINI TAKOMILLASHTIRISH, MUAMMOLAR VA
YECHIMLAR”**

**ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА И СПОРТ:
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ
ПРОГРАММ, ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ**

**PHYSICAL CULTURE AND SPORT: IMPROVING
EDUCATIONAL PROGRAMS, PROBLEMS AND SOLUTIONS**

Xalqaro miqiyosidagi ilmiy amaliy-anjuman

2023 yil 1-2 may

Buxoro – 2023

“INSONGA E’TIBOR VA SIFATLI TA’LIM” yiliga bag‘ishlangan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 7 martdagi 101- son farmoyishiga asosan Buxoro davlat universitetida xalqaro hamkorlar ishtirokida 2023 yil 1-2 may kunlari “jismoniy madaniyat va sport: ta’lim dasturlarini takomillashtirish, muammolar va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy retsenziyalangan onlayn-konferensiya o‘tkaziladi.

Anjumanning maqsadi: Yosh avlodning harakat faolligini optimallashtirish muammolarini hal etishning yangi yo‘llarini izlash, ularning jismoniy tayyorgarligi hamda jismoniy tarbiyasi jarayoniga yangi shakllar va metodlarni joriy qilish bobida metodologik va uslubiy sharoitlarini o‘rganish.

Anjumanning tashkiliy qo‘mitasi:

DASTURIY QO‘MITA

1	O.X.Xamidov	BuxDU rektori, rais
2	R.T.Rasulov	BuxDU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, rais muovini
3	B.B.Ma‘murov	Jismoniy madaniyat fakulteti dekani, a‘zo
4	R.S.Shukurov	Sport nazariyasi va metodikasi kafedrasini mudiri, a‘zo
5	A.E.Sattorov	Sport faoliyati kafedrasini mudiri, a‘zo
6	R.X.Kadirov	Sport nazariyasi va metodikasi kafedrasini professori, a‘zo
7	M.M.Turayev	Sport nazariyasi va metodikasi kafedrasini dotsenti, a‘zo
8	X.N.Xakimov	Sport nazariyasi va metodikasi kafedrasini dotsenti, p.f.f.d.(PhD), a‘zo
9	N.I.Davronov	Sport nazariyasi va metodikasi kafedrasini dotsenti, p.f.f.d.(PhD), a‘zo
10	A.Sh.Inoyatov	Sport nazariyasi va metodikasi kafedrasini dotsenti, p.f.f.d.(PhD), a‘zo
11	F.B.Muzaffarova	Sport nazariyasi va metodikasi kafedrasini dotsenti, p.f.f.d.(PhD), a‘zo
12	Q.Q.Qobiljonov	Sport nazariyasi va metodikasi kafedrasini o‘qituvchisi, a‘zo
13	I.I.Saidov	Sport nazariyasi va metodikasi kafedrasini dotsenti, p.f.f.d.(PhD), kotib

II TASHKILY QO‘MITA

1	B.B.Ma‘murov	Jismoniy madaniyat fakulteti dekani, a‘zo
2	B.B.Qobilov	BuxDU xodimlar va talabalar kasaba uyushmasini raisi, a‘zo
3	U.U.Rashidov	BuxDU moliya va iqtisodiyot ishlari bo‘yicha prorektori, a‘zo
4	G.T.Zaripov	BuxDU I va IPKT bo‘limi boshlig‘i, a‘zo
5	R.S.Shukurov	Sport nazariyasi va metodikasi kafedrasini mudiri, a‘zo
6	A.E.Sattorov	Sport faoliyati kafedrasini mudiri, a‘zo
7	Q.P.Arslonov	Sport nazariyasi va metodikasi kafedrasini professori, a‘zo
8	G‘.M.Salimov	Sport nazariyasi va metodikasi kafedrasini professori, a‘zo
9	Sh.Dj.Abdullayev	Sport nazariyasi va metodikasi kafedrasini dotsenti, a‘zo
10	M.M.Turayev	Sport nazariyasi va metodikasi kafedrasini dotsenti, a‘zo
11	I.I.Saidov	Sport nazariyasi va metodikasi kafedrasini dotsenti, a‘zo
12	A.T.Toshev	Sport nazariyasi va metodikasi kafedrasini dotsenti, a‘zo
13	R.S.Baymuradov	Sport faoliyati kafedrasini dotsenti, a‘zo
14	M.B.Ibragimov	Sport faoliyati kafedrasini dotsenti, a‘zo
15	D.I.Kurbanov	Sport faoliyati kafedrasini dotsenti, a‘zo

Barcha ma’ruza tezislari (maqolalar) tahririyat tomonidan anonimlashtirilgan holatda tekshiriladi va tekshiruvdan ijobiy o‘tgan ma’ruza tezislari nashr etiladi hamda har bir muallifga elektron SERTIFIKAT beriladi. Ma’ruza tezislari berilgan ma’lumot uchun mualliflarning o‘zlari javobgar hisoblanishadi.

Mazkur ilmiy amaliy-anjuman konferensiyada professor-o‘qituvchilar va ilmiy tadqiqotchilar jismoniy tarbiya va sport yo‘nalishida o‘z ilmiy izlanishlari natijasida tayyorlangan ma’ruza tezislari (maqolalar) bilan qatnashadi

Ismoilov Turabjon,

NamDU dotsenti

Ismoilov G'anisher,

O'DJTSU tayanch doktoranti

Hudoyberdiyeva Sevara,

NamDU magistri

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARI BILAN SAYRLARDA O'TKAZILADIGAN HARAKATLI O'YINLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya: ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar bilan sayrlarda o'tkaziladigan harakatli o'yinlarning ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya, sog'lomlashtirish, jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik, harakatli o'yinlar.

Annotation : in this article which is training children with activity plays in the teaching process is clarified.

Ключевые слова: физическое воспитание, оздоровление, физическое развитие, физическая подготовка, подвижные игры.

Аннотация: данной в статье освещены проведение подвижные игры в прогулках с ребятами дошкольного образования.

Key words: physical treatment, recovery, physical developing, physical preparation, physical training, mobile activities.

Mamlakatimiz rahbariyati tamonidan mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab boshqa sohalar qatori jismoniy tarbiyaga alohida e'tibor qaratildi. Respublikamiz rahbariyati oldida turgan asosiy vazifalardan biri bu o'sib kelayotgan yosh avlodni har tamonlama yetuk qilib tarbiyalashdir. Shu boisdan ham soglom avlodni tarbiyalash masalasi dolzarb qilib belgilandi[2;3].

"Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonun, "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorni qabul qilinishi va "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boyicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni katta ahamiyatga ega boldi[1;4;5].

Yurtimiz kelajagi bugungi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodni etuk bo'lib voyaga etishiga bog'liqdir. Yoshlarimizni barkamol insonlar qilib voyaga yetkazishda, jismonan barkamol va ma'naviy jihatdan yetuk insonlar qilib tarbiyalashda ta'lim muassasalari, jamoat tashkilotlari, mahalla va oilaning o'rni muhimdir.

Maktabgacha yoshidagi bolalarni salomatligini mustahkamlashda, jismoniy tayyorgarligini oshirishda ular bilan sayrlarda otkaziladigan harakatli o'yinlarni ahamiyati kattadir[6;7;8].

Ma'lumki hozirgi davrda ko'pchilik oilalarda, ayniqsa, shaxar sharoitida eng kichik yoshdan boshlab bolalarni bog'chaga beriladi. Bugungi kunda bogchalarni etishmasligi sababli ko'pchilik maktab yoshigacha bo'lgan bolalar oilada tarbiyalanmoqda. Shu jihatdan olganda yosh bolalar bilan xilma-xil harakatli o'yinlarni o'tkazish uchun turli yo'llardan foydalanishga to'g'ri keladi.

Maktab yoshigacha bolgan bolalar bilan maktabgacha talim tashkilotlarida jismoniy tarbiya vositasi sifatida sayrlardagi harakatli o'yinlar "Jismoniy tarbiya" dasturi asosida tashkil etiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya dasturi asosida sayrlardagi harakatli o'yinlar tashkil etiladi. Dastur mazmuni bolalar bilan o'tkaziladigan sayrlardagi turli harakatli o'yinlardan iborat bo'ladi. Kun tartibida o'tkaziladigan sog'lomlashtirish tadbirlari asosiy tadbirlar hisoblanadi. Ba'zi tajribali tarbiyachilar va jismoniy tarbiya mutaxassislari sayrlarda turli harakatli o'yinlardan ham unumli foydalanishadi.

Sayrdagi harakatli o'yinlar va harakatlarning asosiy turlariga oid mashqlarni o'tkazish bolalarning harakat faolligini oshiradi, malakalrini yanada mustahkamlanishiga yordam beradi, salomatligini yaxshilashga ko'maklashadi.

Dastlabki paytlarda harakatli o'yinlar va mashqlarga bir qism bolalar jalb qilibadi, keyinchalik ular hamma bolalar ishtirok etishiga harakat qilish kerak. Sayrdagi harakatli o'yin va mashqlarni o'tkazishga tayyorlanish uncha qiyin emas. Sayrga chiqqanda bolalar zarur asbob-anjomlar: bir necha ko'ptok, kubik, chizimcha va hokazolarni olib chiqadilar. Lozim bo'lsa, bolalar tarbiyasi bilan birgalikda maydonchaga gimnastika o'rindiqlarini o'rnatadilar (to'rtburchak holda ketma-ket yoki qarama-qarshi ravishda). Bular o'yinlar va o'yin estafetalari o'tkazish uchun kerak bo'ladi. Yilning issiq davrida o'yinlar va mashqlarni boshlanishida ham oxirida ham o'tkazish mumkin. Sovuq kunlarda o'yin va mashqlardan keyin badai qizib turgan bolalar darhol binoga kirib ketishlari uchun ular sayrni oxirida o'tkazilgani ma'qul.

“Jismoniy madaniyat va sport: ta’lim dasturlarini takomillashtirish, muammolar va yechimlar”

Dastlabki lavhasiz o‘yin yoki estafeta o‘tkaziladi. U 3-4 marta takrorlanadi. Tarbiyachi qoidalarning aniq bajarilishini: vaqtdan ilgari yugurib chiqib olmasligini keglilarni yiqitgan bo‘lsa, orqaga qaytib uni o‘z joyiga qo‘yishni va hokazolarni kuzatib turadi. Kasaldan yangi turgan va mashg‘ulotdan ozod qilingan bolalarni tarbiyachi yordamchi va hakamlar sifatida jalb qiladi. Shundan so‘ng bolalar asosiy harakatlarga doir tanish mashqlarni bajarish taklif etiladi: gimnastika devorchasiga chiqish va tushish gimnastika o‘rindiqlari bo‘ylab yurish, sakrash va hokazolar zarur bo‘lganda yordam ko‘rsatish, yakka tartibda tanbeh berish kerak.

Shunday qilib bolalar zaldagi jismoniy tarbiya mashg‘ulotida harakatlarni o‘rganadilar, sayrlarda hamda o‘yin va mashqlar vaqtida ularni mustahkamlaydilar. Bir muncha vaqtdan so‘ng bu harakatlar estafeta yoki o‘yinlar vaqtida bajariladi. Asosiy harakat mashqlari 3-4 marta takrorlangandan keyin tarbiyachi harakatli o‘yinlar yashkil etadi. O‘yinlar lavhasi bolalarning faol harakat qiladigan: yuguradigan, sakraydigan, uloqtiradigan qilib tanlaydi.

O‘yinlar va asosiy harakatlar vaqtida bolalar sayr uchun kiyadigan odatdagi kiyimini kiyadilar. Shuning uchun tarbiyachi ularning ortiqcha isib ketmasligini kuzatib borishi kerak. O‘yindagi bolalar juda han faol bo‘lsalar, takrorlashlar orasidagi tanaffuslarni bir oz uzaytirish, bu vaqtda bolalarning hatti-harakatini va ular yo‘l qoygan hatolarni muhokama qilish mumkin. Nam va hamolli ob-havo sharoitida o‘yin uchun katta hajmdagi maydoncha tanlash takrorlash orasidagi vaqtni qisqartirish bilan bolalarning faolligini oshirish kerak.

Jismoniy tarbiya dasturidagi harakatli o‘yinlar quyidagilardan iborat:

- to‘p bilan bajariladigan o‘yinlar: to‘pni olib qo‘yish, ilib olish, uloqtirish, doiraga tushirish, savatga tushirish, bir-biriga uzatish, bir-birini urish (tegizish) va h.k;
- estafetali o‘yinlar: biron buyimni yugurib qo‘yib kelish va qaytib olib kelish, arqonchadan sakrab yugurish, tizzada emaklab yurish va h.k;
- narvon yoki maxsus moslamalarga osilish va osilib aylanish, chiqish, tushish;
- kurash elementlari: qo‘llardan ushlab silkitish, yelkadan ushlab silkitish, oyoqlardan ushlab yoki chalib yiqitish, olishish, beldan ushlab olishish va h.k;
- sayr, sayohatlar, toza havoda dam olish, o‘tirib o‘ynaydigan turli hildagi o‘yinlar;
- kichik havzalarda va ariqlarda cho‘milish, kim tez suzadi, kim yaxshi usul bilan suzadi kabi o‘yinlar.
- samalyot, poezd, raketa, avtobus harakatlarini ifodalovchi o‘yinlar va h.k.

O‘yinlarni tashkil qilish va qiziqarli qilib o‘tkazish uchun joylarni tanlash, ularga bo‘lgan talablarni bilish lozim. Sog‘liqqa zarar keltiruvchi va shikastlanishga sabab bo‘luvchi jihatlardan bartaraf qilish tarbiyachi-tashkilotchining burchidir. Ayniqsa, narvonlarning butun yoki siniqligi, osilib o‘ynash, asboblarning tozaligi va butunligini avval tekshirib ko‘rish lozim.

Argamchi, to‘plar, arqon, chamberak va boshqa asbob-uskunalarini guruh bo‘lib o‘ynashda barcha bolalarga yetarli bo‘lishi yoki to‘g‘ri taqsimlanishi lozim. Aks holda bolalar o‘rtasida talashish natijasida nizolar, bir-biri bilan urishishi va janjal chiqarishga sabab bo‘ladi.

Takidlash lozimki, o‘yinlar jarayoni yoki so‘ngida (yakunlash) bolalarning barchasida quvnoqlik, yani o‘ynashga ishtiyoq bo‘lishi lozim. Biron-tasi ham o‘yin yoki bir-biridan norozi bo‘lmasligi kerak.

Jismoniy tarbiya mutaxassisi va tarbiyachi eng avvalo sport va harakatli o‘yinlarning turlari va mazmunlarini a‘lo darajada bilish, tashkil qilish hamda o‘tkazish jarayonlarida doimo birgalikda ijro etish bolalarning qiziqishi, aytganlarini so‘z siz bajarishi va tarbiyachiga bo‘lgan e‘tiqodlarini oshirishda eng muhim omil sifatida hizmat qiladi.

Harakatli o‘yinlar jarayonida, harakatlarni noto‘g‘ri bajargan bolalarni kamsitish, koyish yaramaydi, aksincha, rag‘batlantiruvchi tarbiyaviy usullardan foydalanish bolalar ruhiyatiga ijobiy tasir etadi. Faol bolalarni rag‘batlantirishda o‘rnak sifatida ba‘zilarni namuna qilish mumkin.

Hulosa qilib shuni aytish mumkunki, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar bilan harakatli o‘yinlarni o‘ynash va jismoniy mashqlarni bajartirishda avvalo ularning pedagogik hususiyatlarini hisobga olish, oy‘inni o‘tkazish joylarini va kerakli bo‘lgan jihozlarni oldindan tayyorlab qoyish uarda o‘yinga bo‘lgan qiziqishni yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

- 1.Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги Қонуни (1997, 29 август). Туркистон. – Тошкент. 1997. 30 август.
- 2.Ўзбекистон Республикасининг «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури». Маърифат. – Тошкент. 1998. 1 апрел.
- 3.Ўзбекистон Республикасининг «Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида»ги Қонуни (2015. 04.09). Халқ сўзи. – Тошкент, 2015. 5 сентябр.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони. – Тошкент: “Адолат”, 2017. –112 б.

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони (2020.24 январь).

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори (2017. 3 июн). Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами № 23. – Тошкент, 2017. 12 июн.

7. Махкамжонов К. М. ва бошқ. Спорт байрамларини ташкил қилиш ва ўтказиш методикаси. Дарслик.–Тошкент. “Iqtisod-moliya”, 2008. -98 б.

8. Туленова Х.Б. Мактабгача тарбия муассасаларида 5-7 ёшли болалар жисмоний тарбиясини такомиллаштириш. Дисс. ... пед. фан. ном. –Тошкент. 2000. -160 б.

Jumayeva Azizabonu Mo`min qizi

Turkiston yangi innovatsiyalar universiteti 1-bocqich magistranti

МАКТАБГАЧА YOSHDA GI BOLALARNI JISMONIY SOG`LOMLASHTIRISH VA SPORT BAYRAMLARINI TASHKIL ETISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta`lim tashkiloti bolalarini sog`lomlashtirish bolalar o`rtasida sport bayramlarini tashkil etish masalalari ko`rib o`tilgan.

Kalit so`zlar: maktabgacha ta`lim, sport bayrami, sog`lom avlod, jismoniy tarbiya.

Аннотация: В данной статье рассмотрены оздоровление детей дошкольной образовательной организации и вопросы организации спортивных праздников среди детей.

Ключевые слова: дошкольное воспитание, спортивный праздник, здоровое поколение, физическое воспитание.

Мактабгача та`лим ташкилотларидagi jismoniy tarbiya bayramlari bolalarning sog`lom xushchaqchaq holati va ularning harakat ko`nikmalarining shakllantirishdagi yutuqlari namoyishidan iborat bo`ladi. Jismoniy tarbiya dasturida bolalarning muayyan davr ichida egallangan harakat ko`nikmalarini aks ettirilishi quvnoq harakatli o`yinlar va xilma xil jismoniy mashqlar tashkil etish lozim [1]. Muntazam jismoniy tarbiya mashg`ulotlarida o`zlashtirilgan bu harakat formalari maxsus tayyorgarlik talab etmaydi va bayram dasturiga tabiiy ravishda kirishib ketadi. Bolalarning kayfiyatini yaxshilaydi, zavq bag`ishlaydi. Bayramga tayyorgarli rejadagi tarbiyaviy ishga xalaqit qilmasligi kerak. Bayramgacha vaqt davomiyligi hisobga olinmagan holda ko`p marta takrorlangan “nomerlar” bolalarda jismoniy va psixik toliqish uyg`otadi, qiziqishga ra`sir ko`rsayib, emotsiyalarni zaiflashtiradi va ularni bayramda o`rganilgan dars sifatida bajarisha olib keladi.

Bayramda bolalar bilan muntazam, tizimli ravishda olib boriladigan ishning natijasi bo`lishi kerak. Jismoniy tarbiya va sport bayramlari o`zlarining mazmun-mohiyatiga ko`ra dastur va tuzilishi jihatdan juda xilma xil bo`lishi mumkin. Bu bayram kundalik hayotda maydonchanning odatdan tashqari bezatilishi, jismoniy tarbiya ashyolari, gullar, lentalar va hokazolar yordamida jhozlanishi bian ajralib turadi, bolalar maydonchasining odatdagi tusini o`zgartiradiva bolalarda bayram kayfiyatini uyg`otadi. Bayram davomida musiqa ohangi ham muhim o`rin tutadi. U emotsional ko`tarinkilik uyg`otadi va bolalarni quvnoq xushchaqchaq kayfiyatda birlashtiradi. Bayramning birinchi qismi jismoniy tarbiya formasida bo`lishi mumkin. U alohida jamoalarga bo`lingan, o`zlarining nishonlarini ko`tarib olgan bolalar yurishi bilan boshlanadi. Qo`shiq, she`rlar jo`rligidagi bolalar harakati ulkan emotsional ko`tarinkilik uyg`otadi. shundan so`ng bolalar o`z yutuqlarini o`yinlar va mashqlarda namoyish qilishlari mumkin. Katta guruh bolalari o`z kuchlariga yarasha musobaqalarda yugurish, uloqtirish, sakrash, predmetlar bilan bajariladigan mashqlar va hokazo, o`yin estafetalarda, sport o`yinlarida qatnashadilar. Bayram, tadbirlarda quvnoq o`yinlardan foydalanish mumkin. Bularning barchasi har bir yosh guruhlar va umuman barcha guruhlar uchun ajratilgan vaqtni hisobga olgan holda o`tkaziadi. Bayramning ikkinchi qismi bolalarda yuqori quvonch uyg`otuvchi tomosha formasi-qo`g`irchoq teatri sifatida yoki kattalar va bolalar ishtirokidagi konsert, o`yinlar tashkil etilishi mumkin. Bayram nihoyasida bolalar boshlovchi taklifiga ko`ra mehmonlar, ota-onalar, tarbiyachi, pedagoglar, bolalar bog`chalari xodimlarini taklif etib tushiriladigan umumiy raqs yaxwi kayfiyat ko`tarinki ruh bag`ishlaydi. Birinchi juftlikda bayram boshlovchisi-tarbiyachi bola bilan raqsga tushadi. U murakkab bo`lmagan harakatlarni ko`rsatadi, qolganlar ularni takrorlaydilar. Jismoniy tarbiya bayramlarni qish faslida o`tkazish ham ma`qul. Ular mazmunini ham bolalarning harakat faoliyati tashkil etadi, mavsum uchun chanada ephillik ko`rsatib

“Jismoniy madaniyat va sport: ta’lim dasturlarini takomillashtirish, muammolar va yechimlar”

Ismoilov Turabjon, Ismoilov G’anisher, Hudoyberdiyeva Sevara. MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI BOLALARI BILAN SAYRLARDA O’TKAZILADIGAN HARAKATLI O’YINLARNING AHAMIYATI.....	367
Jumayeva Azizabonu Mo`min qizi. MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALARNI JISMONIY SOG`LOMLASHTIRISH VA SPORT BAYRAMLARINI TASHKIL ETISH	369
Ibragimov Manuchexr Baxtiyorovich, Jumayeva Azizabonu Mo`min qizi. BOLALARNING KUNDALIK HAYOTIDA JISMONIY TARBIYA BO`YICHA ISHLARNI TASHKIL ETISH	370
Курбанов Джурабек Исмаатович. МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ЁШИДАГИ БОЛАЛАР ТАРБИЯСИНИНГ ЎЗИГА ХОСХУСУСИЯТЛАРИ	372
Aslanova M.A., Mirzalieva Iqbola O`lmasboy qizi. BOSHLANG`ICH SINFLAR O`QUVCHILARIDA JISMONIY SIFATLARNI MILLIY HARAKATLI O`YINLAR VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH ..	375
Mukhitdinova Nigora Mekhriddinova. MECHANISMS OF INTELLECTUAL DEVELOPMENT OF CHILDREN 6-7 YEARS OLD WITH THE HELP OF PHYSICAL EXERCISES	378
Nurmuhammadova Yoqut. MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI BOLALARNI TARBIYLASHDA HARAKATLI O’YINLARNING AHAMIYATI	381
Primova Nargiza Adilovna. SPORT BAYRAMLARI SENARIYLARI VA ULARNI TUZISHGA QO`YILADIGAN TALABLAR	383
I.I.Saidov. Istamova Durдона Mashraf qizi. S.I.Saidov. O`Z-O`ZINI JISMONIY TARBIYALASH ORQALI JISMONIY RIVOJLANISH.....	386
Сардор Содикович Самадов. Мактабгача ёшдаги болалар ривожланишининг ёшхусусиятлари ва жисмоний тарбия машғулотлари	389
Shukurov R.S., Samadov S.S. MAKTAB O`QUVCHILARINI O`ZBEK MILLIY KURASHI VOSITASIDA SOG`LOMLASHTIRISH	393
Aslanova M.A., Xayriddinov Rustam Xayriddinovich. BOSHLANG`ICH SINFLAR O`QUVCHILARIDA JISMONIY MADANIYATNI SHAKLANTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI	397
Xoliqov Umidjon Qo`chqarovich. MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARINI SHAXMAT SPORT TURLARIGA QIZIQTIRISH ORQALI SOG`LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHI.....	400
7-sho`ba: Qishloq maktablarida jismoniy tarbiya darslarini o`qitish, sport pedagogikasi rivojlantirish muammo va yechimlari.	
Абдуллаев Ш.Дж. ПРОБЛЕМЫ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В СЕЛЬСКИХ ШКОЛАХ.....	403
A.Абдуллаев, Гофуров. Жисмоний тарбиядан синфдан ташқари машғулотларини болалар ва ўсмирлар организмининг функцияга таъсири	405
Abduyeva Sitorabonu Savriddin qizi, Tojiyeva Nargiza Mehriddin qizi, Hamroyeva Xumora Jo`rabek qizi. JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA SPORT SOG`LOMLASHTIRISH TADBIRLARINING AHAMIYATI.....	408
Abduyeva Sitorabonu Savriddin qizi, Tojiyeva Nargiza Mehriddin qizi, Ozodov Oxunjon Qobil o`g`li. JISMONIY TARBIYA DARSINING TA`LIM TARBIYA TIZIMIDAGI O`RNI	410
Abduyeva Sitorabonu Savriddin qizi, Hamroyeva Xumora Jo`rabek qizi, Ozodov Oxunjon Qobil o`g`li. JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA O`QUVCHILAR FAOLIYATINI TASHKILLASHTIRISH ..	412
Abduyeva Sitorabonu Savriddin qizi, Ashrapova Oqila Badriddin qizi. BOSHLANG`ICH SINFLARDA JISMONIY TARBIYA FANINI O`QITISHNING AHAMIYATI.....	414
Aslanova Maloxat Akramovna. SPORT TURIZMI, UNING TURLARI VA IJTIMOY AHAMIYATI.....	416
Ismoilov Turabjon, Toshpulatov Foziljon, Siddiqova Feruza. QISHLOQ MAKTABLARIDA DARSDAN KEYINGI SPORT TO`GARAQLARINING AHAMIYATI	419
Karomatov Jasur Alisherovich, JISMONIY TARBIYA DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI	421
Мазина Елена Алексеевна. РАЗВИТИЕ И ПРЕПОДАВАНИЯ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В СЕЛЬСКОЙ МЕСТНОСТИ.....	423
Aslanova M.A., Mirzalieva Iqbola O`lmasboy qizi. BOSHLANG`ICH SINFLAR O`QUVCHILARIDA JISMONIY SIFATLARNI MILLIY HARAKATLI O`YINLAR VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH ..	425
Jahongir Jo`rayevich Murodov. TALABALARNI JISMONIY TARBIYA VA SPORT DARSLARIDA HARAKATLARGA O`RGATISH JARAYONLARI	428
Нарзуллаев Ф.А. МАКТАБЛАРДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ДАРСЛАРИНИ ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАР АСОСИДА ТАШКИЛ ЭТИШ	431